

JAHON EPOSLARIDA BAHODIRLIK, QAHRAMONLIK VA MARDLIK TALQINI
("Alpomish" va "Odisseya" dostonlari misolida)

Sonniboyev Olim Nodirovich

SamDChTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15368467>

Annotatsiya. Dunyo qiyosiy adabiyotshunosligida "Alpomish" va "Odisseya" dostoni ko'p o'rganilmagan. Ushbu maqolada "Alpomish" va "Odisseya" dostonlari pafosini yuzaga chiqargan bahodirlik, qahramonlik va mardlik talqini masalasi tahlilga tortiladi. Unda qahramonlar xarakterining oddiy va murakkab tomonlari, ular o'rtasidagi jiddiy kurash va raqobat drammatizmi, ikki epos syujetining o'ziga xos va mushtarak, farqli jihatlari misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: "Alpomish", "Odisseya", folklor, alplik talqini, qahramonlik va mardlik motivi, realistik va afsonaviy talqin.

Аннотация. В мировой сравнительной литературоведении эпос "Alpomish" и "Odisseya" изучен мало. В данной статье анализируется вопрос интерпретации оценочности, героизма и мужества, который вывел на поверхность пафос эпосов "Alpomish" и "Odisseya". В ней раскрываются простые и сложные аспекты характера героев, драматизм серьезной борьбы и соперничества между ними, на примере специфических и общих, отличных аспектов сюжета двух эпосов.

Ключевые слова: "Alpomish", "Odisseya", фольклор, альпийская интерпретация, мотив героизма и мужества, реалистичная и легендарная интерпретация.

Abstract. The epic "Alpomish" and "Odyssey" has not been studied much in the comparative literature of the world. In this article, the question of the interpretation of valor, heroism and bravery, which revealed the pathos of the epics "Alpomish" and "Odyssey", will be analyzed. It reveals the simple and complex aspects of the characters' character, the drama of serious struggle and competition between them, the unique and common, different aspects of the plot of the two epics.

Keywords: "Alpomish", "Odyssey", folklore, alpine interpretation, heroic and courageous motive, realistic and legendary interpretation.

Jahon xalqlari yaratgan qahramonlik eposlarida bahodirlik, qahramonlik va mardlik motivi turlicha badiiy talqin etilgani bilan ko'zga tashlanadi. Bu ilmiy muammo "Alpomish" va

“Odisseya” dostonlari misolida kuzatilganda Sharq va G‘arb xalqlari so‘z san’atining muayyan mezonlari mavjudligini ko‘rsatadi.

“Alpomish” dostonida qahramonlarning bahodirlik va mardlik sifati “alp” ta’rifi orqali beriladi. Bunda qahramonning alplik sifati uning jismonan qudratliligini, devqomat pahlavonligini va albatta, uning barchani hayratda qoldiradigan qudrat namunasi ko‘rsatishini talab etadi. “Alpomish” dostonida bu motiv “Odisseya”ga qaraganda aniq-ravshan bo‘rttirilib tasvirlanadi. Masalan, Hakimbekning pahlavonlik, jismonan qudratligini olaylik:

Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, yetti yashar bola ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozi olamga ketdi... (dostonda 90 alp o‘tganligi tilga olinadi)

Dostonda qalmoq alplarining ham jismonan kuch-qudratda tengsizligi e’tirof etiladi. *Toychi viloyatinda, Qalmoq muzofotinda bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo‘r kampir edi, bu kampirning yetti o‘g‘li bor edi, yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko‘kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko‘kaman der edi, Ko‘kqashqa derdi, Boyqashqa der edi, Toyqashqa der edi, Qo‘shquloq (der edi), kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tir qilgani Qalmoqshoh har mamlakatlardan alplarni olib kelib, to‘qson alp qilib, Kashal g‘oridan joy berib, bularni to‘qayistonda boqib yotar edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp, har qaysisi to‘qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to‘qson shirbozning etini ta’til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so‘m moyana olgan xo‘b birlanchi zo‘r polvondir...*

“Alpomish” dostonida alplar kurashi o‘ziga xos talqinga ega. Unda qahramonlarning kurashi faqat jismoniy bellashuvdangina iborat emas, balki qahramonlarning o‘zaro olib borgan dahanaki jangida ham namoyon bo‘ladi. Bunga misol tariqasida Alpomish va Qultoy, Alpomish va Qorajon, Barchinoy va Ko‘kaman, Alpomish va Ko‘kaldosh qarama-qarshiligini keltirish mumkin. Shubhasiz, bu kurashlarning eng asosiysi Alpomish va Ko‘kaldosh o‘rtasidagi hisoblanadi. Alpomish va Ko‘kaldosh nutqiga e’tibor beraylik:

Alpomish:

Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na'ra tortsam qular qo‘rg‘onning timi,
Buncha so‘zni lof urmagin bema'ni,
Otim Hakim, men ham Boysinning xoni...

Nor kesar olmosni belga chotarman,
Qilichima qirmiz qonlar qotarman,
Duchor kelganingni ko'kka otarman,
Ish ko'rsatib, yorim olib ketarman.
Jafolar solarman tandagi jonga,
Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga,
Ajalli kasratki tegar ilonga,
Hazillashma, qalmoq, menday sultonga,
Sen mard bo'lsang, chiqa bergin maydonga,
Ot-potingman otayinmi osmonga?!
Alpomish der senga bermayman omon,
Qalmoqlarga solayin oxir zamon.

Ko'kaldosh:

O'zbek, eshit mening dodim,
Yerni bosgan siyosatim,
Bu yurtda qolar jasading,
Qaytib sen otasan otim,
Kimga keladi quvvating?!
Sen ham, o'zbek, ajab depsan,
Guppi so'z o'rganib kepsan,
Necha so'zni lof uribsan.
Qilarman yer bilan yakson,
So'z aytarman alvon-alvon,
Elingdan chiqibsan, polvon,
Mendan qutulmog'ing gumon.

Doston bosh qahramoni Alpomish kabi uning yori Barchinoy ham ta'rifda erkak alplardan kam emas: *"Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yag'rini o'n besh qarich keladi. Pirning nazari bilan paydo bo'lgan, bu ham alp..."* Barchindagi dushmandan qo'rqmaslik, mardlik sifatleri uning tilidan bir necha bor keltiriladi. Masalan, uning Ko'kamanga aygan so'zlarini olaylik:

Xabar borsa, bek Alpomish kelmaymi,
Xonim kelsa, senday qalmoq o'lmaymi,
Holing bilib to'g'ri yursang bo'lmaymi?!

Kelsa kelar Qo'ng'irotdan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko'rarman,
Erkak libosini o'zim kiyarman,
Bor kuchimni bilagima jiyarman,
Qirq mingini bir deb sanab qirarman.
Meni olmoq hadding bormi, badbaxtlar!
Barchin suluv deydi mening o'zimdi...

Dostonda Alpomishning Ko'kaldoshni, Barchinoyning Ko'kamanni yengish epizodlari xarakterlar kurashining dramatik talqini, voqealar shiddatining diqqatga molik yakunidir. Har ikkala kurashda (jismoniy va ma'nan kurash) bosh qahramonlar o'z raqiblaridan ustun keladi.

Yunon eposi "Odissey" da yuqoridagi motiv butunlay boshqacha talqinga ega. Bu doston voqealarining asosiy qismi Odissey sarguzashtlari bilan bog'liq. Odisseyning Troya urushida ko'rsatgan jasorati ko'p yurtlarga keng tarqaladi. Odissey o'zi haqidagi e'tirof va maqtovlarni o'zgalar tilidan eshitadi va o'z qahramonligini boshqalarga aytib berish orqali ochib beriladi. Xususan, dostonning 7-qo'shig'ida uning dengiz to'fonidan keyin Sxeriya oroliga tushib qolgani voqelari beriladi. Orolning dono podshosi Alkinoy Odisseyi izzat-ikromlar bilan kutib oladi, uning sharafiga bazm-u jamshid beradi. 8-qo'shig'ida Ko'r qo'shiqchi (rapsod) Demodok Odisseyning Troya jangidagi qahramonliklarini kuylaydi.

Kuylay ketdi: axeylar shoh Odisseyning boshchiligida
Eng dilovar jangchilarni yog'och ot qornida qoldirib,
O'zlari o't qo'yib qarorgohlariga cho'ng kemalarda
Suzib keta boshlaydilar; yog'och otni troyaliklar
Kiriturlar shaharga va yog'och otning atrofida o'rab
Bir qarorga kela olmay turadilar boshlari qotib.
Uchta fikr tug'ilgandi troyaliklarning dilida:
Yo mahvkor mis silohlar bilan yog'och otni majaqlash,
Yoki uni tortib borib tepalikka, jarga qulatish,
Yo sulh nishonasi bilib Troyaning qoq markaziga
O'rnatish va uni boqiy tangrilarga baxshida qilish;
Hamma oxirgi taklifni ma'qulladi, zero taqdirda
Yozilgandi: gar qorniga axeylarning sara kuchlari
Yashiringan yog'och otni kiritsalar shahar ichiga,
Troyaning halokatga uchramog'i muqarrar, deya.

So'ng axeylar tap-tap sakrab tushadilar otning qornidan;
G'azabnoklar shaharni o'z bilganicha g'orat qiladi;
Shoh Odissey jangda g'oyat qahri qattiq Menelay bilan
Deifobning yotog'iga chaqmoq yanglig' kirib boradi
Va Afina ko'magida qonli jangda zafar quchadi.

9-qo'shiqda Odissey o'zini kimligini feaklarga aytadi va boshidan o'tgan ajoyib, g'aroyib sarguzashtlarni bayon etadi:

Odisseyman, Daert o'g'li, ajib koshif karomatligim
Ham antiqa nayranglarim butun elga bo'lgan ovoza.
Porloq orol Itakadir ota yurtim; ul zamindagi
Cho'qqilari quyuq o'rmon Nerion tog' ko'zga tashlanur
Dengizning har tarafidan; chor atrofda yana bir talay
Bizga yaqin qo'shni bo'lgan orollar bor: Zam va Dulixiy,
O'rmonga boy Zakinf yana; Itaka eng chekka mag'ribda
(Ko'p orollar kumush Eos va Gelios balqib chiquvchi
Mashriq yoqda); yeri toshloq bo'lsa hamki, yigit-qizlari
Zabardastdir; Itakadek aziz yer yo'q menga dunyoda...

Shunday qilib, turkiy xalqlarning milliy eposi sanalgan "Alpomish" dostonida qahramonlar xarakteridagi qahramonlik, mardik va bahodirlik sifatleri matndagi an'anaviy ta'riflardan tashqari qahramonlarning o'zaro og'zaki, dahanaki olib borgan(aytishuvida) jangida va jismoniy kurashida yaqqol ko'rinadi, "Odissey" dostonida esa Odissey qahramonliklarining turli toifa kishilar va qahramon tilidan bayon qilingani bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomish: Xalq og'zaki ijodi / "Alpomish" dostonlari turkumidan/ - Toshkent: "ZUKKO KITOBXON", 2023. -576 bet.
2. Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 415 б.
3. Жаббор Эшонкул. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент, 2019. -245 б.
4. Жаббор Эшонкул. Фольклор, образ ва талқин. – Қарши: Насаф нашриёти 1999. - 169 б.
5. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и запад. – Ленинград: Наука, 1979.

6. Маҳмудов М. Ҳайрат ва тафаккур. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 186 б.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
8. Ҳомер. “Одиссея”. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.